ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Xudoyberdiyeva Durdona Umrzoq qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: dilime990@gmail.com

+99888-277-38-98

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA OTA SIYMOSI VA UNING MA’NAVIY OLAMI TALQINI

Annotatsiy

Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani va undagi ota timsoli, uning ma’naviy olami haqida so‘z yuritiladi. Asardagi ota obrazi badiiy jihatdan tahlil qilinadi va uning falsafiy-badiiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Asar badiiyati haqida mulohaza yuritilib, muallifning o‘ziga xos uslubiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar

Ota, oila, farzand, jamiyat, konflikt, kulminatsiya, uslubiyat, obraz, qahramon, voqea rivoji.

Аннотация

В данной статье рассматриваются роман Улугбека Хамдама “Ота” и образ отца в этом произведении, а также его духовный мир. Образ отца анализируется с художественной точки зрения, раскрываются его философского-художественные особенности. Также рассматривается художественная ценность произведения и выявляется своеобразие авторского стиля.

Ключевье слова

Отец, семья, ребёнок, общество, конфликт, кульминация, стилистика, образ, персонаж, развитие сюжета.

Annotation

This article discusses Ulugbek Hamdam’s novel “Ota” and the image of the father portrayed in it, as well as his spiritual world. The father figure in the wrk analyzed from an artistic perspective, and its philosophical and artistic features are examined. The artistic value of the work is also considered, and the author’s distinctive stylistic approach is revealed.

Keywords

Father, family, child, society, conflict, climax, stylistics, character, development of events.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida Ulug‘bek Hamdam ijodi alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchining asarlarida inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar hamda milliy qadriyatlar badiiy jihatdan chuqur yoritiladi. Uning “Ota” romani ham mazkur jihatlari bilan o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Asar nomi tilga olinganda, ko‘pincha, o‘quvchi ongida O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi bilan ma’lum bir ma’naviy uyg‘unlik yuzaga keladi. Chunki ushbu qissa ona obraziga bag‘ishlangan bo‘lsa, “Ota” romani ota timsolining ma’naviy mohiyatini badiiy talqin etishga qaratilgan. Shu jihatdan har ikki asar o‘zbek adabiyotida oila va ota-ona qadriyatlarini yorituvchi muhim badiiy manbalar sifatida baholanadi.
Mazkur asarlarning o‘quvchi qalbiga chuqur ta’sir etishining asosiy sabablaridan biri ularning real hayot voqealari va insoniy kechinmalar asosida yaratilganligidir. Har ikki asarda ham oila muhitidagi mehr-muhabbat, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, insoniy burch va mas’uliyat masalalari badiiy ifodasini topgan.

Romanning asosiy mavzusi oila bo‘lib, asar voqealari deyarli boshdan oxirigacha otaning hissiyotlari orqali tasvirlanadi. Muallif asarda otaning oiladagi o‘rni, farzandning ota-ona uchun ahamiyati, uni katta qilishdagi quvonch-u iztiroblar haqida, zurriyot- nom qoldirish masalasi yuzasidan o‘z fikrlarini namoyon qiladi. Otaning ichki konfliktlari, atrofiga va oilasiga nisbatan munosabati orqali yozuvchi o‘zbek otalari siymosini ochib berishga harakat qiladi, shu bilan birga adabiyotimizda yangi manzarani – otalar obrazini alohida ta’kidlab, birinchi marta ota hissiyotlari to‘liq ochib berilgan asarni kitobxonlarga taqdim etadi. Otalar nafaqat oilaning, balki butun boshli jamiyatning tayanch nuqtasi ekanligini ta’kidlaydi. Asarni o‘qir ekanmiz, filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov ta’biri bilan aytganda *“mehribon, jonkuyar, ammo gunohkor ota”* [1] bilan tanishamiz, uning va oilasining qismatiga achinamiz, ko‘zyosh to‘kamiz.

Asar bosh qahramon – Po‘latning farzandsizligi bilan boshlanadi. Uning o‘zidan nom qoldirish borasida qilgan sa’y-harakatlari-yu chekkan iztiroblari ichki monologlar orqali juda ta’sirli qilib tasvirlangan. Masalan, quyidagi jumlalarni olaylik: *“Hayot nima o‘zi? Bir kelish- bir ketish-da! Shu kelib-ketishda ortingdan qoladigan faqat bola! Bola- o‘limning yuziga inson tushirgan tarsaki. Ortidan farzand qoldiribgina “Dunyoda men ham borman!” deya oladi erkak kishi. Yo‘qsa umr deganlari hovuchingda turgan suvday gap- oqadi-ketadi. Farzand, faqat farzand! Qolgani- bekor, qolgani- bir pul!.. Lekin qanisan? Qayerlarda qolding! Nega kelmaysan?..”*[2]

Darhaqiqat, inson bu dunyoda o‘zidan biror narsa qoldirib ketolsa, uning biri yaxshilik-u boshqasi farzand, zurriyot bo‘lishi mumkin, qahramonimiz aytganidek: “…qolgani- bekor”.

Romanda farzandning ota-ona uchun qiymati beqiyosligi juda ravshan yoritilgan. Sevinchning yuzi yong‘inda kuyib qolgandan so‘ng ota qizi bilan birday uning iztiroblarini chekadi, psixologik jihatdan qizidan-da ko‘proq azoblanadi. Uning bundan keyingi hayoti qanday kechishi, umrini qanday davom ettirishi haqida o‘ylab azoblanadi.

“...Uyimga o‘t qo‘ygandan ko‘ra, kelib meni o‘ldirib ketsang, yaxshiroq emasmidi! Yaqinlarim bir kun yig‘lashardi, ikki kun yig‘lashardi, uchinchi kun ko‘nib ketishardi. Endi-chi?.. Unga bir kun kuysang ham, ming kun kuysang ham dardi ado bo‘lmaydi-ku endi, ado bo‘lgur!

[1] Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. So‘zboshi

[2] Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. 22-bet

Endi qizimga qo‘shilib hammamiz, butun oilamiz bir bo‘lib kuyib yonib o‘tamiz-ku! Shunday bo‘lyaptiyam-ku!..”[3]

Ushbu satrlarni o‘qirkanmiz, yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratiga tahsin aytamiz, otaning iztiroblariga qo‘shilib iztirob chekamiz, uning dardlarini ich-ichimizdan his etamiz.

Yong‘in voqeasidan so‘ng ota qizini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi, og‘ir damlarida yonida tog‘day tayanch bo‘ladi, odamlar qizdan “ujaas!” deya qochayotganlarida uni yana-da qattiqroq bag‘riga bosadi, jamiyatga qo‘shilishiga, boshqa insonlar bilan teng huquqli ekanligini isbotlashga jon-dili bilan harakat qiladi, ammo asarda shunday jonkuyar otaning o‘ta mudhish gunohi bor, muallif ta’biri bilan aytganda: *“...uning la’nat va maqtovga loyiq topilgan qilmishi bitta edi- u o‘z qizini o‘ldirgan edi!”*

Kitobxon ideal ota bilan asar ichida “sayohat” qilar ekan, birdan bu mudhish voqeaga duch kelib “shok”ka tushadi, voqealar rivoji shu qadar tezlashib ketadiki, qaysi qahramonning qilmishi to‘g‘ri ekanligini anglay olmay qoladi. Bu borada, hatto, yozuvchining o‘zi ham aniq bir tarafni yoqlamagan, qiz yoki ota qilmishi yuzasidan betaraf ekanligini ta’kidlagan, qay tarafni tanlashni kitobxonning o‘ziga qo‘yib bergan, chunki har kimning o‘z haqiqati, voqealarni o‘lchaydigan o‘z qarichi bor. Shuning uchun asar ichidagi qahramonlar ham ikki tarafga bo‘linib qolgan: tashqaridagi odamlar otani qoralashsa, qamoqdagi odamlar unga tahsin aytishadi. Lekin otaning o‘zi- chi, u qanday holatda yashadi umrining oxirigacha? Butun umr savollar girdobida qovrilmadimi? 14 yillik qamoq muddatida miyasidagi savollar otani bo‘g‘ib, o‘z domiga tortmadimi? Bir marta o‘zini oqlasa, ming marta qoralamadimi? Xotinini, qizini tinglamagani uchun pushaymon yemadimi hech? Qotillikdan so‘ng ota butun dunyodan uzildi, voz kechdi, faqat o‘y-xayollari bilan, cheksiz savollari bilan yashadi. Fikrimizcha, otaning yuragi va ongi ikki tomon bo‘lib qoldi: ongi butun vujudini nafratga chulg‘ab, qilmishi to‘g‘ri ekanligini ta’kidlasa, yuragi qotilligini qoraladi, vijdoni hatto tushlarida ham uni aybladi: *“Joning shunchalar shirinmidiki, u dunyoni deb bu dunyoni ag‘dar- to‘ntar qilib yubording- qizingni o‘ldirding?! Iymoningni, ohiratingni qutqaraman deding-u, aslida, o‘z joningni do‘zax olovidan xalos qilmoqchi bo‘lding! Nomim bulg‘anmasin deding, aslida, qo‘lingni o‘z qizingning aziz qoniga bulg‘ading!.. ”*. [4] Darhaqiqat, u xalq orasida bosh ko‘tarib yurishini o‘ylab, shu ishni qildi. Qizini tinglamadi, tinglashni ham xohlamadi. Uning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rmadi. Biz dunyodan o‘tib ketsak, u kim bilan qoladi, kimga suyanadi deb o‘ylamadi. Butun umr o‘zidan zurriyot qoldirishni o‘ylab yashagan odam, balki, qizim mening nomimni saqlamoqchidir, dunyo daftariga muhrlamoqchidir, degan xayolga bormadi. Ehtimol, bunday xayolga borishni ham istamagandir, balki yozuvchi shu jihatlarni keltirib o‘tarkan zimdan qizning tarafdori bo‘lgandir…

Ota qamoqdan chiqqach, qizining farzandi asar voqealariga kirib keladi: dastavval ota uni qabul qilishni xohlamaydi, ammo so‘ngra uni qidirib topadi, o‘z uyiga olib keladi, u bilan birga ekan yana yashashga ishtiyoq sezadi, qalbiga mehr hissi qaytadi.

“Nevaram, o‘zimni nevaraginam, bormisan! Qayerlarda muncha hayallab qolib ketding, nega qolib ketding?! Seni shunchalar uzoq kutdimki, hech qachon kelmaysan deb o‘ylagandim. Sevinchimdan qolgan yolg‘iz yodgorim, Yog‘dumdan qolgan shirin xotiram! Voh Ollohim,

[3] Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. 109-bet

[4] Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. 164-bet

shunaqasi ham bo‘ladimi! Qarab tursam, hammamizni shu jajji palaponda jamlab qo‘yibsan-ku!..” [5]

Xalqimizda “Danagidan mag‘zi shirin” degan maqol bor. Haqiqatan ham, farzand bir qadar sevimli bo‘lsa, farzandning farzandi ming chandon sevimli bizning xalqimiz odamlariga. Bizning ota ham bolasining bolasini ko‘rib butun ginalarini unutadi, xuddi hamma voqealar tushda sodir bo‘lganday tuyuladi, bolani asrab-avaylaydi, Yodgorni qizimdan qolgan yodgorim deb suyadi. Xotini va qizining “gunoh”laridan o‘tadi, nihoyat ularni tushunishga urinib ko‘radi va bu gaplarni biz quyidagi jumlalar orqali izohlaymiz:

“Endi ota uchun ikki dunyo ham bir edi! Faqat bu boshqacha “bir bo‘lish” edi. Yaxshi ma’nodagi birlik. Po‘lat ota endi kechagidek o‘limga oshiqmaydi, chunki uyda nabirasi- Yodgori bor. Hayotning etagiga ham yopishib olmaydi, chunki u yoqda- qabristonda Yog‘du bor, Sevinch bor!.. Oh, hayot ham shunchalar shirin bo‘ladimi! Ayniqsa, umr adog‘ida!..”[6]

Romanni o‘qirkanmiz, yozuvchining mahoratiga tan bermay ilojimiz yo‘q. Roman rasman milliy va zamonaviy adabiyotimizning qorishmasidan tashkil topgan. Zamonaviy realizm va ong oqimi uslublari qorishib o‘zgacha uyg‘unlikni yuzaga keltirgan. Zabardast muallifimiz har doimgidek kitobxonlarni o‘ziga jalb qilishni va savollar-u emotsiyalar girdobiga tushirishni uddalay olgan.

Xulosa qilib aytganda, asar “Barcha otalarga bag‘ishlanadi”. Otalar oilaning ustuni sifatida har doim to‘g‘ri qaror qabul qilishlari kerakligi, shoshqaloqlik tufayli u dunyo-yu bu dunyosini zavol qilmasligi lozimligi haqida so‘z yuritiladi. Go‘yo Sevinch va otasi dunyodagi otalarga tinglashni, tushunishni o‘rganing, o‘rganish barobarida amalda ham qo‘llang, deyotgandek tuyuladi. Zotan, hech bir ish sababsiz bo‘lmas, qilinyotgan har bir ishda maqsad-murod bordir, farzand ota-ona uchun qanchalik aziz bo‘lsa, ota-ona ham farzand uchun shunchalar azizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. 208 B
2. M. Imamberdiyeva. “Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani konsepti tahlili”. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAOGICAL SCIENCES INTERNATONAL SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE. 185-187
3. N. Turdiyeva. “Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi ota obrazi. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVMENTS AND INNOVATIONS (2022) 72-79
4. S. Eshquvvatova “Ota” asari qahramonlari psixologiyasi (2024) https://share.google/5vVkxwr4ajtQjnhc7
5. www.ziyouz.com

[5] Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. 191-bet

[6] Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2024. 205-bet